



MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUKAION MANAGEMENT IN THI ERA OF DIGITISATION

<https://doi.org/10.53885/edires.2022.10.10.018>

Soxibov Akram Rustamovich

PhD Associate Professor

of the Department of Pedagogy Karshi State University

Abstract: The processes of managing of innovative development in higher educational institutions in the conditions of formation of innovative economy, the roles of managers of the institutions, approaches to the management of the higher educational system in the process of globalization, and experiences of foreign countries in this field have been described in the article. Also, the analysis of the activity of management of innovative, scientific-pedagogical and scientific-research processes in higher educational institutions has been carried out. It has been attempted to develop some suggestions and recommendations for Monitoring of conflict situations in the management of innovative development processes in higher education, increasing the effectiveness of leaders' participation in the process of innovative development using technologies of resolving them.

Key words: processes of managing, of innovative development, manager, innovative economy, higher educational system, process of globalization.

RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK ASOSLARI

Soxibov Akram Rustamovich

Qarshi davlat universiteti p.f.n., dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqola ishida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida OTM ni innovatsion rivojlantirish jarayonlarini boshqarish, bunda rahbarlarning tutgan o'rni, oliy ta'larning globallashuvni jarayonlarida oliy ta'lim tizimini boshqarishda yuzaga kelgan yondashuvlar, bu boradagi xorijiy tajribalar bayon etilgan, shuningdek, OTM rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tavsiflab berilgan, OTM larda innovatsion, ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqotchilik jarayonlarini boshqarish faoliyati tahlili amalga oshirilgan hamda OTM larda innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshqarishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni monitoring qilish, ularni hal etish texnologiyalaridan foydalanish orqali innovatsion rivojlantirish jarayonida rahbarlarning ishtiroki samaradorligini oshirish bo'yicha ba'zi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qilingan.

Калитм сўзлар: innovatsion iqtisodiyot, OTM ni innovatsion rivojlantirish,

<http://interscience.uz> 169

boshqarish, rahbarlar, globallashuv, olivy ta'lim tizimini boshqarish, xorijiy tajribalar, OTM rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Сохибов Акрам Рустамович к.п.н., доцент

Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методологические основы управления высшим образованием в эпоху цифровизации. Обосновано место и процесс развития инновационного управления руководителей вузов. Указано процессы инновационного развития в условиях цифровой экономики руководителей вузов республики. Анализировано конфликтные ситуации в управлении инновационного развития и указаны пути, креативности руководителей высшего образования. Также даётся заключение и приложения в пути экономического развития современных методологических основы управления высшим образованием в эпоху цифровизации.

Ключевые слова: методология, управление, цифровизация, процесс, развитие, инновация, инновационное развитие, цифровая экономика, анализ, конфликтные ситуации, креативность, заключения, приложения, экономическое развитие, современные методологические управления высшего образования.


Oliy ta'lim muassasasi – bu o‘ziga xos belgilarga, faoliyat yo‘nalishlariga, boshqaruv tuzilmasiga va tashkiliy-huquqiy asoslariga ega bo‘lgan muassasadir. Oliy ta’lim muassasasining boshqaruv tuzilmasi o‘zi ichiga ikkita – byurokratik va akademik komponentlarni oladi. An’anaviy shakldagi byurokratik tuzilma iyerarxiya, mehnat taqsimoti, standartlashtirish va formal (shakl)lashtirish asosiga quriladi. Akademik tuzilma esa ekspertiza, nomarkazlashuv va kasbiy guruh qadriyatlariga moyillik tamoyillariga asoslanadi. Oliy ta’lim muassasasini boshqarishning asosiy muammosi mana shu ikkita komponent orasidagi muvozanatni topishdan iboratdir.

Biroq, bu yerda “to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya” yoki “hokimiyat vertikali” tamoyillari ish bermaydi. Mazkur holatda vazifa oliv ta’lim muassasasini boshqarishdagi turli xil shakllarning o‘rin almashuvi hisobiga hal qilinishi mumkin bo‘lib, bu ham mehnat taqsimoti va standartlashtirishni, ham kuchli va mustaqil kasbiy guruhning mavjud bo‘lishini hisobga olishi kerak. Shu nuqtai-nazardan “oliv ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish” tartibi mana shunday muvozanatni topishning bir dastagi bo‘lib o‘rtaga

chiqa oladi.

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish (OTMBIE) – bu oliy ta’lim muassasasiga egalik qilish va uni boshqarishning bir shakli bo‘lib, uning itirokchilari hamkorlikda qarorlar qabul qiladilar yoki qarorlarni ijro etish uchun ma’suliyatga ega bo‘lgan guruh yoki shaxslarga bu qarorlar bo‘yicha tavsiyalarni beradilar. Qarorlar ijrosi uchun ma’sul bo‘lganlar qaror qabul qilish jarayonidagi umumiy manfaatdorlikni saqlash uchun boshqa ishtirokchilar tomonidan berilgan tavsiyalarni e’tiborga olishlari lozimdir.

Bunda oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish ishlarining samaradorligi shart-sharoitlari bo‘lib quyidagilar sanaladi (1-rasm):



1-rasm. OTM ni boshqarishda samaradorlikni ta’minlovchi omillar .

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishdagi aralash boshqaruv – bu kuchli ijrochilik hokimiyatining professor-o‘qituvchilardan va boshqa oddiy xodimlar hamda talabalarning vakillaridan iborat bo‘ladigan qo‘mitalarning ishtiroki bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshiriladigan boshqaruv shaklidir.

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ishtirok etish jarayonini tashkil etish tamoyillari uchta yo‘nalishda bo‘lib, ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

OTM ni boshqarish jarayonlariga muassasasi ichida mavjud bo‘lgan barcha guruhlar jalb etilishi zarurdir;

ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilish bo‘yicha huquq eng katta ekspertizaga ega bo‘lgan guruhga beriladi;

yuqori turuvchi ma’muriyat veto huquqiga ega bo‘lib, bu OTM steykxolderlarining boshqa guruhlariga dalilli ravishda asoslab berilishi lozim.

OTM steykxolderlari – bu boshqaruvchi tashqi kengash bo‘lib, u OTM rahbari yoki ma’muriyati, professor-o‘qituvchilar tarkibi va talabalardan iborat bo‘ladi. Ularning hamkorlikdagi ishlari mazkur to‘rtta guruhlar orasidagi manfaatlarning o‘zaro muvozanatining doimiy izlab topish va

ularning OTM yagona bir yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishi haqidagi tasavvurlarini integratsiyalashni ko‘zda tutadi.

Bu steykxolderlarning har bir guruhida oliy ta’lim muassasasi rivojlanishi bo‘yicha o‘z qarashlari mavjud bo‘ladi. Vasiylar va homiylarning har biri eng avvalo, jamoatchilikning aks-javob harakatlarini e’tiborga olishi zarur bo‘ladi, shuning uchun oliy ta’lim muassasasi – bu jamiyat, davlat va mehnat bozorining talab-ehtiyojlariga aks-javob qaytaruvchi ijtimoiy tuzilmadir. Bunda oliy ta’lim muassasasining ma’muriyati o‘z diqqatini samaradorlikka, mahsuldarlikka va ustunlikka qaratadi. Mana shu nuqtai-nazardan oliy ta’lim muassasasi eng avvalo, mehnat taqsimotiga asosan tashkil etilgan va samaradorlik/mahsuldarlikning aniq, standart qoidalari hamda mezonlari bo‘yicha ish olib boradigan korporatsiya bo‘lib hisoblanadi. Professor-o‘qituvchilar tarkibi vakillari esa akademik qadriyatlarni saqlab qolish va uni olg‘a surish kabilalar haqida qayg‘uradilar.


Professor-o‘qituvchilar uchun oliy ta’lim muassasasi – bu faoliyati yangi bilimlarni izlab topish, yaratish va saqlashga hamda ularni mutaxassislar va olimlarning bo‘lajak avlodlariga uzatishga qaratiladigan tuzilmadir. Talabalar esa mazkur oliy ta’lim muassasasida tahsil olish davomida oliy ma’lumotli bo‘lish va bu haqida tegishli diplomni qo‘lga kiritish istagida bo‘lib, bu ularga kelgusi kasbiy faoliyatлari davomida mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishga imkon beradi.

Lekin shu bilan birlgilikda, ular talabalik hayotidan ham manfaatdor bo‘lib, oliy ta’lim muassasasi ular uchun nufuzli diplomni taqdim etadigan va tahsil davom etadigan 4-5 yil davomida ularning o‘z vaqtini o‘tkazadigan asosiy bandlik joyidir.

Shularni e’tiborga olgan holda oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish sxemasini (2-rasm) ko‘rib chiqishda shunday bo‘lib tuyulishi mumkinki, faoliyat sohalarini va steykxolderlarni mana shunday tarzda ajratish dunyoning, shu jumladan, bizning mamlakatimizdagi istalgan oliy ta’lim muassasasi ichida mavjud bo‘lishi mumkin. Formal darajada mazkur oliy ta’lim muassasalarida kollegiallik birmuncha rivojlangan, professor-o‘qituvchilar va talabalar hamjamiyatlari vakillarining fikr-mulohazalari e’tiborga olinadi va nihoyat, oliy ta’lim muassasasining oliy boshqaruv organlarining vakolatlari OTM ning Nizomida va boshqa huquqiy hujjalarda qayd etib o‘tilgan bo‘ladi. Biroq, biz ko‘rib chiqayotgan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv modelida bir nechta muhim farqli jihatlar mavjuddir.

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etishning ideal modeli shuni ko‘zda tutadiki, bunga ko‘ra yakuniy qarorlarni qabul qilish steykxolderlarning har bir guruhida oliy ta’lim muassasasini har xilda tushunish, anglash, qabul qilish hamda ularning turli xil manfaatlari,

qadriyatlari, munosabatlari va aloqalari mavjudligini hisobga oladi.



2-rasm. OTM BIE ning tipik modeli .

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish tartibining asosiy o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda ko'rsatib o'tilgan sohalar va guruuhlar iyerarxiya darajasi sifatida olib qaralmaydi. Shunisi muhimki, ular bunda oliy ta'lim muassasasini boshqarish jarayonida bir-birlari bilan hamkorlik qiladilar va o'zaro kesishadilar. U yoki bu steykxolderlar qaror qabul qilish jarayoniga kiritilishining ehtimoliy sohalari jamlanmasi boshqaruv jarayoni ishtirokchilarining kompetensiyalari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, tashqi Kengash va ma'muriyat vakillari prinsip jihatidan akademik masalalar doirasiga aralashmasliklari zarurdir. Professor-o'qituvchilar jamoatchiligi vakillarini strategik va umumiyl moliyaviy masalalar bo'yicha qaror qabul qilingunigacha to'g'ridan-to'g'ri jalb etish kerak emas. Talabalar esa faqat talabalik hayotiga taalluqli masalalarni hal qilish va qisman o'quv jarayoniga doir muammolar sohasiga jalb etilishlari mumkin, bunda ular strategik va moliyaviy masalalarni hal qilish jarayonlarida ishtirok etmasliklari lozim. Ravshanki, har biri oliy ta'lim muassasasining rivojlanishi bo'yicha o'z qarashlariga ega bo'lgan va o'z manfaatlarini ko'zlovchi steykxolderlar orasida muvozanatni topish o'ta murakkab vazifadir. Bu esa oliy ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish g'oyasi nima uchun amalda mana shunday murakkab joriy etilishini tushuntirib bera oladi.

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish tartibining asosiy maqsadi – bu steykxolderlarning barcha guruhlari va kuchli ijrochilik organi (OTM rektorati va ma'muriyati) ishtiroki orasidagi optimal muvozanatni topishga intilishdir. Bunda qarorlarni qabul qilish va kundalik hamda strategik rejalashtirishda hisobdorlik mavjudligi tushunarlidir.

Tashqi boshqaruv Kengashi oliy ta'lim muassasasini boshqarish jarayonida "tashqi ovoz" vazifasida ishtirok etadi. Tashqi kengash tarkibiga oliy ta'lim muassasasining xodimlari va talabalari kirishlari mumkin. Bu kengash oliy ta'lim muassasasining jamiyat, davlat va mehnat bozori (bo'lajak

ish beruvchilar, talabalar va ularning ota-onalari) talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlanishidan manfaatdor bo‘ladi. Tashqi kengash a’zolariga strategik va moliyaviy masalalarni hal qilish, kapital va joriy ehtiyojlar uchun mablag‘larning mavjudligi uchun javobgarlik, qarz olish siyosatini nazorat qilish vazifalari yukланади.

Tashqi kengash odatda oliy ta’lim muassasasining kundalik hayotini boshqarish jarayoniga aralashtirilmaydi. Ilmiy-texnik xodimlar (ITX) va professor-o‘qituvchilar tarkibi (PO‘T) akademik sifatning ko‘plab parametrlari – o‘quv dasturlari mazmuni, diplom va bitiruv ishlariga talablar, o‘qitish standartlari va talabalarning ishlarini baholash kabilarni belgilab beradi. Aynan mana shu guruuhlar vakillari yangi pozitsiyaga nomzodlarni tanlab olishda, akademik olg‘a surish vazifalarida va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashda asosiy rolni o‘ynaydilar, shu jumladan, institutsional siyosatni ishlab chiqish va ish haqi masalalarida faol ravishda jalb qilinadilar.

Ma’mur (administrator - rektorat, ma’muriyat)lar moliyaviy resurslardan foydalanish va oliy ta’lim muassasasining kundalik boshqaruv jarayonlari masalalarini hal qiladilar. Ular oliy ta’lim muassasasi ichidagi guruhni tashkil etib, bu guruh oliy ta’lim muassasasining yuqori boshqaruv organidagi shaxslar – rektor, Kengash oldidagi ma’sul shaxs, ma’muriy-boshqaruv personali hamda boshqa ijrochi shaxs (fakultetlar dekanlari va kafedralar mudirlari)dan iborat bo‘ladi. Rektor, fakultetlar dekanlari va bo‘lim mudirlari shuningdek, professor-o‘qituvchilar, ma’muriyat vakillari va talabalar bilan boshqaruvning markaziy, o‘rta va lokal bo‘g‘inlaridagi vositachilar bo‘lib ham sanaladilar.

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish modelida talabalar har doim hisobga olib kelinadi. Ularning steykxolderlar tarkibiga kiritilishi 1960-yillarda turli mamlakatlardagi talabalarning chiqishlari bilan bog‘lanib, bu chiqishlardan so‘ng talabalar oliy ta’lim muassasalarini boshqarishning turli xil kollegial organlariga kira boshladilar. Bu guruh bugungi kunda oliy ta’lim muassasasi ichida talabalarning turmushiga doir masalalarni (o‘qitishning umumiyligi standartlari, ovqatlanish, turar-joy yoki karyeraviy masalalar kabi) hal qilishga jalb qilinadi, oliy ta’lim muassasasini boshqarish darajasida ham, tashqi hay’attlar ishida ham ishtirok etadilar.

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish modelining ishini tashkil etish bir qator o‘ziga xos jihatarga ham egadir. Bir qarashda oliy ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish modelini joriy etish oddiy ishga o‘xshab ko‘rinadi. Buning uchun birinchi navbatda bu modelning tashkiliy elementlari – boshqaruv kengashi, ilmiy kengash, ilmiy kengash ichidagi va undan tashqaridagi turli xil qo‘mitalarning ishini joriy etish kerak bo‘ladi. Biroq, bu yerda muammo shundaki, mazkur tuzilmalarning samarali faoliyatini ta’milanishi lozimligi bunda eng muhim masalaga aylanadi. Chunki mana

shu formal tuzilmalar ishini tashkil etib qo‘yish bilan muammolarning barchasi hal bo‘lib ketavermaydi va oliy ta’lim muassasasi ichida qaror qabul qilishning optimal jarayoni paydo bo‘lishini kafolatlamaydi. Sababi, mazkur holatlarda qo‘mitalar va kengashlar boshqa bir tomon ularning fikr-mulohazalarini hisobga oladigan tarzagi boshqaruvning real organi sifatida shakllana olmay qolib, ular oddiyginasiga xo‘jako‘rsinlarcha tashkil etib qo‘yilish xavfi ham mavjud bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ishtirok etish modelini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun quyidagicha bir nechta muhim va murakkab vazifalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi:

Tashkiliy tuzilmalarни steykxolder bo‘la oladigan, umumiyl maqsadga erishish uchun jamoaviy ravishda ishlay oladigan va qabul qilingan qarorlar uchun o‘z zimmasiga ma’suliyatni ola biladigan kishilar bilan to‘ldirish;

Oliy ta’lim muassasasi ichida masalalarni jamoaviy muhokama qilish madaniyati va texnikasini rivojlantirish;

Formal tuzilmalar, kishilarning faoliyatini va jarayonlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda oliy ta’lim muassasasini boqsharish optimal bo‘lishi hamda mahsuldar natijalarga olib kelishi lozimdir.

Mana shu aytib o‘tilgan takliflarni joriy qilish orqali oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ishtirok etish modelini samarali joriy qilish mumkin bo‘ladi. Bunda mazkur model oliy ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida o‘zining yangidan-yangi elementlarini namoyon qilib boradi. Ulardan o‘z o‘rnida va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish bilan oliy ta’lim muassasasining haqaqatdan ham real ish olib boruvchi tuzilmalarini tashkil etish va qarorlar qabul qilishning optimal jarayonlarini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.; “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Toshkent sh., 2020 yil 23 sentabr, O‘RQ-637-soni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5367-soni Farmoni

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-soni Farmoni.

5.“O‘zbekiston Respublikasida 2022-2024 yillarda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-73-soni qaroriga 7-ilova, <https://>

www.lex.uz/docs/5801134.

6.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagи 242-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 dekabrdagi VMQ 1030-sonli “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajali xodimlarga qo‘srimcha haq to‘lash to‘g‘risida”gi Qarori.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar.

9.SH.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.

10.Батоврина Е.В., Блохина М.С. Развитие инновационного мышления персонала в процессе профессиональной подготовки // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия Социальные науки. 2017. № 4. С. 126-134.

11.Батоврина Е.В., Черняева Г.В. Принципы и ключевые направления формирования инновационной организационной культуры // Известия Юго-западного государственного университета. Серия Экономика. Социология. Менеджмент. 2018. Т. 8. № 2(27). С. 196-202.

12.Бермус А.Г. Гуманитарные смыслы образования: из XX - в XXI век. Ростов-на-Дону: Изд-во ЮФУ, 2015; Левицкая И.А. Социокультурный подход как методологическое основание педагогического исследования // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки. 2012. № 2. С. 54-58.

13.Блохина М.С. Инновационный потенциал современных руководителей как фактор развития инновационного общества // Вестник высшей школы. Almamater. Секция: Экономика и управление в социальных системах. 2019. № 7. С. 60-66. DOI: <https://doi.org/10.20339/AM.07-19.060>.

14.Борытко Н.М. Становление субъектной позиции учащегося в гуманитарном пространстве урока: монография. Волгоград: Изд-во ВГИПКРО, 2002.

- 1.www.ziyonet.uz
- 2.www.mitc.uz
- 3.www.aim.uz